

**"PROTEZLASH TURLARI. TISH PROTEZLARINING TASNIFI.
ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA QO'LLANILADIGAN
TISH PROTEZLARI."**

Yusufaliyev Inoyat Sobir o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali pediatriya fakulteti Stomatologiya
yo'nalishi 103-A guruh

inoyatyusufaliyev@gmail.com

+998887402018

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ortopedik stomatologiyada qo'llaniladigan tish protezlash usullari, ularning turlari va tasnifi haqida batafsil tahlil berilgan. Tish yetishmovchiligi muammosi chaynov, nutq, estetik hamda psixologik funksiyalarga ta'sir qilgani bois, protezlash usullarining to'g'ri tanlanishi stomatologik amaliyotda katta ahamiyatga ega. Maqolada protezlashning turlari – fiksatsiyalanuvchi, olinadigan va shartli olinadigan protezlar, ularning konstruktiv va funksional farqlari, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilayotgan innovatsion materiallar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ortopedik stomatologiya, tish protezi, fiksatsiyalanuvchi protez, olinadigan protez, byugel, implant, zirkoniy, CAD/CAM texnologiyasi, estetik protezlash.

KIRISH

Ortopedik stomatologiya – bu jag'-yuz sohasi, chaynov apparatining funksional, estetik va anatomiya strukturaviy yaxlitligini tiklashga qaratilgan muhim yo'nalishdir. Bugungi kunda aholining katta qismi tish yo'qotilishi yoki turli darajadagi tish yetishmovchiligi muammosiga duch kelmoqda. Bunday hollarda tish protezlash — asosiy tiklovchi vosita sifatida ko'riladi. Tish protezlarining to'g'ri tanlanishi bemorning hayot sifatini oshiradi, ovqat hazm qilish tizimini me'yorga keltiradi, psixologik holatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy dunyoda tishlarning nuqsoni uchun kompensatsiya masalalari ularning ahamiyatini yo'qotmaydi. Afsuski, zararli ishlab chiqarish, beqaror ekologik vaziyat, qoniqarsiz oziq-ovqat tarkibi, oziq-ovqat sifati va boshqa omillar, avvalgidek, tishlarning sog'lig'iga merosxo'r omil bilan

parallel ta'sir ko'rsatadi. Yaxshiyamki, bugungi kunda faqat bitta savol berilishi kerak - muayyan holatda qanday protez proteksionlari maqbul bo'ladi.

ASOSIY QISM

1. PROTEZLASHNING TURLARI

Stomatologik amaliyotda protezlash quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

To'liq protezlash – og'iz bo'shlig'ida barcha tishlar yo'qotilgan hollarda qo'llaniladi. Maxsus plastmassalardan tayyorlangan, so'rish kuchi yoki implantlar asosida og'iz bo'shlig'iga mahkamlanadi.

Qisman protezlash – og'izda ayrim tishlar saqlanib qolgan bo'lsa, qolgan tishlar o'rnini tiklash uchun ishlatiladi.

Fiksatsiyalanuvchi (doimiy) protezlar – bemor tomonidan yechilmaydigan, sement yoki boshqa materiallar yordamida mahkam o'rnatiladigan protezlar.

Olinadigan protezlar – bemor istagiga ko'ra og'izdan yechib olinadigan protezlar.

Shartli olinadigan protezlar – maxsus konstruksiyaga ega bo'lib, faqat shifokor tomonidan yechiladigan turdagi protezlar.

2. TISH PROTEZLARINING TASNIFI

Tish protezlarini bir nechta mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

A) Fiksatsiyalanish usuliga ko'ra:

Fiksatsiyalanuvchi protezlar: tojlar (kronalar), ko'priklar, venyerlar, implant asosidagi protezlar.

Olinadigan protezlar: qisman va butunlay olinadigan plastmassali protezlar.

Shartli olinadigan protezlar: implant asosida, teleskopik yoki lokatorli tizimlar.

B) Konstruktsion tuzilishiga ko'ra:

To'liq protezlar – barcha tishlar yo'qotilgan holatlarda.

Qisman protezlar – bir yoki bir nechta tishlar yo'qolganida.

Byugel protezlar – metall karkasli, mustahkam va uzoq muddatli ishlatiladigan protezlar.

C) Ishlatilgan materialiga ko‘ra:

Akril plastmassali protezlar

Metall-keramik protezlar

Zirkoniy asosidagi protezlar

Kompozit materialli protezlar

**3. ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA QO‘LLANILADIGAN
TISH PROTEZLARI**

Zamonaviy stomatologiya amaliyotida quyidagi tish protezlari keng qo‘llaniladi:

3.1. Fiksatsiyalanuvchi protezlar:

Tojlar (kronalar) – tishning toj qismini tiklaydi.

Ko‘prikcha protezlar – bitta yoki bir nechta tish yo‘qotilganda.

Venyerlar – old tishlarda estetik ko‘rinishni tiklashda.

Implant asosida fiksatsiya qilingan protezlar – eng zamonaviy va uzoq muddatli usul hisoblanadi.

3.2. Olinadigan protezlar:

To‘liq olinadigan protezlar – tishsiz holatlarda ishlatiladi.

Qisman olinadigan protezlar – ayrim tishlar saqlangan hollarda.

Byugel protezlar – metall karkasli bo‘lib, chaynov yuklamasini fiziologik taqsimlaydi, bemor uchun qulay va mustahkamdir.

3.3. Shartli olinadigan protezlar:

Teleskopik tizimli protezlar – bazal tishlar ustiga joylashtiriladi, faqat stomatolog yordamida yechiladi.

Lokatorli yoki barli implant tizimlari – maxsus mahkamlovchi elementlar orqali fiksatsiya qilinadi.

4. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA MATERIALLAR

So‘nggi yillarda CAD/CAM texnologiyasi, 3D skanerlash va zirkoniy asosidagi materiallar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa protezlarning aniqligini, estetikasini va bardoshligini oshiradi. Zirkoniy protezlar metallga qaraganda allergik ta’siri kam,

ko‘rinishi esa tabiiyroq bo‘ladi. Shuningdek, biokompatibil materiallar, shaffof keramikalar bemor salomatligiga zarar yetkazmaydi.

XULOSA

Ortopedik stomatologiyada protezlashning to‘g‘ri tanlovi bemorning umumiy sog‘lig‘i, hayot sifati va psixologik holatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Har bir klinik holatda individual yondashuv, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va sifatli material tanlash ortopedik stomatologik amaliyotning samaradorligini belgilaydi. Protezlash turlari va ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi shifokorning tajribasi, klinik imkoniyatlar va bemorning ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev X.S., Axmedov R.X., Sharipov A.X. "Ortopedik stomatologiya." – Toshkent: TTA nashriyoti, 2018.
2. Axmedov R.X. "Stomatologiyada protezlash asoslari." – Toshkent: O‘zbekiston tibbiyot akademiyasi nashriyoti, 2020.
3. Sharipov A.X. "Zamonaviy stomatologik materiallar va texnologiyalar." – Toshkent: 2021.
4. Васильев А.Н. "Ортопедическая стоматология." – Москва: Медицина, 2017.
5. Наумов В.П., Холодков А.В. "Протезирование в стоматологии." – Санкт-Петербург: ЭЛБИ, 2019.
6. N.G.Abolmasov, N.N.Abolmasov, V.A.Bichkov, A.Al-Xakim "Ortopedicheskaya stomatologiya" M.: "MEDpress-inform". 2003
7. V.N.Kopeykin va boshqalar – "Rukovodstvo po ortopedicheskoy stomatologii". M.: "Meditsina". 1993